

## ISHSIZLIKNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI

**Nabiyeva Nargizaxon Nuriddin qizi**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish  
kafedrasi assistenti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ishsizlik turlari va ishsizlik davlat iqtisodiyotiga qay darajada ta'sir qilish haqida ma'lumotlar Ihsizlikni keltirib chiqaruvchi omillar va bartaraf qilish yo'llari keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ishsizlik, potensial, mahsulot, iqtisodiyot, bandlik.*

Ihsizlik – mamlakatdagi mavjud ishchi kuchi bir qismining foydalanilmay qolishini namoyon etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy hodisa. Mehnatga layoqatli bo'lib, ishlashni xohlagan ishchi kuchining ish bilan ta'minlanmagan qismi ishsizlar deyiladi. Namoyon bo'lish xususiyati va vujudga kelish sabablariga ko'ra ishsizlik friksion, tarkibiy, siklik, institutsional, texnologik, regional, yashirin va turg'un ishsizlik turlariga bo'linadi.

Kishilar turli sabablar (yangi yashash joylariga ko'chib o'tish, ishining mazmuni va tavsifi yoqmay qolishi, nisbatan yuqoriroq ish haqi olishga intilish va boshqalar)ga ko'ra o'z ishlarini almashtirib turadilar. Biroq, bir ishdan bo'shab, boshqa biriga joylashgunga qadar orada ma'lum vaqt o'tadi (ba'zi adabiyotlarda bu muddat 1 oydan 3 oygacha davom etishi ko'rsatiladi). Aynan shu vaqt oralig'idagi, ya'ni bir ishdan bo'shab yangi ishga joylashgunga qadar bo'lgan davrdagi ishsizlik friksion ishsizlik deyiladi.

Joriy yilning o'tgan davrida qariyb 1 mlnga yaqin o'zbekistonliklar ish bilan ta'minlangan. Shuningdek, 46 mingdan ortiq aholi tayyorlov va malaka oshirish uchun jalb qilingan. Ular asosan xizmat ko'rsatish, qurilish va IT kabi sohalarda o'qishadi. Joriy yilning o'tgan davrida qariyb 1 mlnga yaqin o'zbekistonliklar ish bilan ta'minlangan. Joriy yilning o'tgan davrida O'zbekistonda 999,7 ming aholi doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ish bilan ta'minlangan. Bu haqda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri Behzod Musayev ma'lum qildi.

Shuningdek, 111,8 ming nafar ishsiz fuqarolar korxon va tashkilotlardagi mavjud bo'sh ish o'rinlariga ishga joylashtirildi. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan 10,2 ming nafar ehtiyojmand fuqarolar ish bilan ta'minlandi. 2023-yilda 15 mingta imkoniyati cheklangan fuqarolar bandligini ta'minlash bo'yicha alohida dastur ishlab chiqilgan bo'lib, bu bo'yicha o'tgan to'rt oy davomida 5000 ta fuqaro bandligiga ko'maklashilgan.

Bundan tashqari, aholini vaqtinchalik ishlarda daromad manbai bilan ta'minlash maqsadida 7,3 mingta korxon va tashkilotlar bilan hamkorlikda 38,8

ming aholi haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etilib, ularga ish haqi uchun 40,9 mlrd so'm mablag' moliyalashtirilgan.

Behzod Musayevning qayd etishicha, mehnat bozori konyunkturasi tahlil qilinib, talab yuqori bo'lgan 71 turdagi kasb bo'yicha 160 ming nafardan ortiq ishchi kasb egalariga bo'lgan hozirgi va keyingi ehtiyoj belgilab olingan.

Yanvar-aprel oylarida 46,4 ming nafar ishsiz aholi mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarga tayyorlash va malakasini oshirish uchun yuborildi. Ularning 10,3 ming nafari o'qishni tamomladi.

O'qishga jalb qilinganlar quyidagi sohalarga to'g'ri keladi:

- sanoat va xizmat ko'rsatish — 34,4 ming;
- qurilish — 4,6 ming,
- agrotexnologiyalar — 900 ta;
- IT sohasi — 1,9 ming;
- hunarmandchilik ("Usta-shogird") — 4 ming.

O'zini-o'zi band qilish faoliyat yo'nalishlari bilan band bo'lgan 10,9 ming nafar xotin-qizlar o'zini-o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazildi.

Joriy yilda mehnat bozoriga 734,9 ming nafar bitiruvchi kirib kelishi kutilmoqda. Shundan:

- umumiy o'rta maktabni bitirganlar — 383,1 ming;
- kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlarni bitirganlar — 194,3 ming;
- OTM bitiruvchilari 157,5 ming nafarni tashkil etadi.

Joriy yilning 1-yanvar holatiga OTM talabalarining 110 mingga yaqini iqtisodiyotning rasmiy sektorida o'qishdan tashqari ish bilan band bo'lganlarni tashkil etadi. Xususan, shundan 64,5 ming nafari davlat sektorida, 42,1 ming nafari xususiy sektorda o'z faoliyat olib boradi. Yil boshida Behzod Musayev mamlakatdagi ishsizlik darajasi 8,9%ga, qashshoqlik darajasi esa 14,1%ga kamayganini ta'kidlagandi. Tadqiqotlar 2022-yilda ishsizlik darajasi past bo'lgan hududlarga Toshkent shahri, Navoiy va Toshkent viloyatlari kirishini ko'rsatgandi.

Jizzax, Samarqand, Surxondaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston esa ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan hududlarga kirdi. Yil boshida davlat rahbari kambag'allikni qisqartirish bo'yicha topshiriqlar berdi. Xususan, sharoiti og'ir mahallalardan kamida 50 ming aholining bandligi ta'minlanadi. Shuningdek, 2023-yilda 5 mln nafar aholi bandligi ta'minlanib, 2 mln doimiy ish o'rinlari yaratiladi. Yana 1 mln aholini kambag'allikdan chiqarish vazifasi qo'yilgan.

Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari uning ta'sirida ishlab chiqarilmay qolgan mahsulot hajmi orqali baholanadi. Iqtisodiyot barcha ishlashni xohlagan va ishlay oladiganlar uchun yetarli miqdorda ish joylarini yaratish holatiga ega bo'lmasa



mahsulotishlab chiqarish potensial imkoniyatining bir qismi yo'qotiladi. Iqtisodiy adabiyotlarda bu yo'qotish yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmining orqada qolishi sifatida aniqlanadi hamda u haqiqiy YaIMning potensial YaIMdan kam bo'lgan hajmi sifatida ko'rinadi. Ishsizlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, YaIM hajmining orqada qolishi shunchalik katta bo'ladi.

Makroiqtisodiyot sohasidagi taniqli tadqiqotchi A.Ouken ishsizlik darajasi va YaIM hajmining orqada qolishi o'rtasidagi nisbatini matematik ifodalab beradi. Bu nisbat iqtisodchilar orasida Ouken qonuni sifatida tanilgan bo'lib, agar ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan bir foizga ortiq bo'lsa, YaIM hajmining orqada qolishi 2,5% ni tashkil qilishini ko'rsatadi.

Ayrim hollarda milliy mahsulotning haqiqiy hajmi potensial hajmidan ortib ketishi ham mumkin. Bunday hol ishsizlik darajasi tabiiy darajadan ham past bo'lgan davrlarda ro'y beradi. Ishlab chiqarishga ishchilarning qo'shimcha smenalarini jalb qilish, kapital uskunalardan belgilangan me'yordan ortiqcha darajada foydalanish, ish vaqtdan keyin qo'shimcha ishlash va o'rindosh ishlarda band bo'lish kabilar buning asosiy sabablaridir.

Ishsizlikning ijtimoiy oqibatlarini ham mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir o'tkazishi mumkin. Jumladan, ishsizlikning ba'zi turlarining uzoq muddatli tavsifi ishchilarning o'z malakalarini yo'qotishlari hamda daromad va ijtimoiy mavqei jihatidan aholining nisbatan past toifasiga o'tib qolishiga olib keladi. Bu esa ularda o'z turmush tarzidan qoniqmaslik, ijtimoiy faollikning yo'qolishi, atrofdagilarga nisbatan loqaydlikning paydo bo'lishi kabi holatlarni keltirib chiqaradi.

Ishchi kuchining ish bilan bandligi muammosi ko'p qirrali bo'lib, u barcha odamlarga o'z qobiliyatlarini ishga solish, o'z ehtiyojlarini qondirish uchun dastlabki teng imkoniyatlarni ta'minlovchi davlat va bozor mexanizmini vujudga keltirish; ishchi kuchini unumli va samarali ish bilan band qilish; zarur hollarda ishchi kuchini iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari o'rtasida qayta taqsimlash kabi masalalarni ham o'z ichiga oladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Inson taraqqiyoti to'g'risida xisobot. G. Saidova va raxbarligidagi mualliflar guruhi - T.: 1997.
2. Абдурахимова, Д. (2023). БАНКЛАР ИННОВАЦИЯЛАРИ ОРҚАЛИ МИЛЛИЙ ИПОТЕКА ИНСТРУМЕНТЛАРИ БОЗОРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil, 1(2), 96–102. Retrieved from <https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/51>
3. Абдурахимова, Д. К. (2023). ИННОВАЦИОН БАНК МАҲСУЛОТЛАРИНИНГ ЖАҲОН ИҚТИСОДИЁТИ ТАРАҚҚИЁТИДАГИ РОЛИ ВА УЛАРДА ҚЎЛЛАНИЛАДИГАН ТУРЛАРИ. PEDAGOGS jurnali, 36(1), 161-170.

4. Smirnova N. Ishsizlikning sotsial qiyofasi. jurnal. "Inson va demokratiya". 1993. №1 21-24 betlar.
5. Abdurakhimova, P. D. THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF BANKING INNOVATIONS'IMPACT ON ECONOMIC DEVELOPMENT OF COUNTRIES.
6. Abdurakhimova, D. (2021). INFLUENCE OF FINANCIAL INCLUSION ENCLOSED BY DIGITAL BANKING PRODUCTS ON UZBEKISTANS ECONOMY. International Finance and Accounting, 2021(4), 11.
7. Машарипов, В. У., Мирвалиева, Н. Р., & Абдуллаев, У. М. (2023). Местный иммунитет и специфическая сенсibilизация к антигенам бактерий у больных тонзиллитом. Science and Education, 4(2), 392-400.
8. Abdurakhimova, D. K. (2014). PREREQUISITES FOR THE TRANSITION OF TRADITIONAL BANKS TO DIGITAL BANKING. The Way of Science, 23.
9. Sanober, S., Aldawsari, M., Karimovna, A. D., & Ofori, I. (2022). Blockchain Integrated with Principal Component Analysis: A Solution to Smart Security against Cyber-Attacks. Security and Communication Networks, 2022.

